

Qabul qilindi: 06.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024

UD'K: 81'373.4:821(04)

**XORAZM VILOYATI GIDRONIMLARINING
STRUKTUR TADQIQI****Aqmanova Shahnoza Alimboyevna**
Urganch davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsent v.b., (PhD)shahnoza.aqmanova.90@mail.ru**СТРУКТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОНИМОВ
ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ****Акманова Шахноза Алимбоевна**
Ургенчский государственный университет
Доцент кафедры узбекского языкознания<https://orcid.org/0000-0002-9203-1722>**STRUCTURAL STUDY OF HYDRONYMS OF THE
KHOREZM REGION****Akmanova Shakhnoza Alimboevna**
Urganch State University
Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati gidronimlarining tuzilishiga ko'ra turlari, struktur tarkibi muayyan tasniflar asosida tahlil qilingan. Gidronimlarni struktur jihatdan tahlil qilish juda ko'p lingvistik masalalarni oydinlashtirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: atoqli ot, gidronim, struktur tahlil, lingvistik model, sodda so'zli gidronimlar, qo'shma tarkibli gidronimlar, birikma tarkibli gidronimlar.

Аннотация: В данной статье гидронимы Хорезмской области анализируются по их структуре, исходя из определенных классификаций. Он основан на том, что структурный анализ гидронимов служит прояснению многих языковых вопросов.

Ключевые слова: существительное, гидроним, структурный анализ, лингвистическая модель, гидронимы с простыми словами, сложные гидронимы, сложные гидронимы.

Annotation: In this article, the hydronyms of the Khorezm region are analyzed according to their structure, based on certain classifications. It is based on the fact that the structural analysis of hydronyms serves to clarify many linguistic issues.

Keywords: noun, hydronym, structural analysis, linguistic model, hydronyms with simple words, compound hydronyms, compound hydronyms.

KIRISH

Gidronimlar boshqa onomastik birliklar ichida juda uzoq davrning mahsuli ekanligi bilan farqlanadi. S.Qorayev ta'kidlaganidek, "toponimistlar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb baholashadi"[2.58]. Shuning uchun ham ularda ma'lum hududda yashovchi xalq tilining o'ziga xos xususiyatlari saqlangan.

Gidronim so'zi yunonchadan olingan bo'lib "suv nomi" mazmunini bildiradi va okean, dengiz, ko'l, soy, jilg'a, quduq kabi suv obyektlari nomlarini

qamrab oladi [2.212.]. Shuningdek, qo'ltiq, bo'g'oz, muzlik, botqoq, daryo, irmoq, anhor, ariq, kechuv, kanal, sharshara, buloq, chashma, koriz va hovuz kabilarning nomlari ham gidronimiya tarkibida o'rganiladi [3.20.].

Ma'lumki, gidronimlarning fonetik strukturasi o'zgaruvchan bo'ladi. Shuning uchun ham gidronimlarni grammatik jihatdan tahlil qilganda ularning strukturasi ahamiyat beriladi. Gidronimlarning strukturasi ularning morfologik tarkibi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklari modellarini hosil qilish, buning uchun dastavval, ularning struktur tadqiqini amalga oshirish zarurati bor. Shuning uchun ham onomastik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda birinchi o'rinda nomlarning tuzilishiga ko'ra turlari, model tiplari yuzasidan aniq tasniflar yuzaga keltiriladi. Gidronimlarning struktur tadqiqi bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Z.Do'simov, S.Qorayev, N.Uluqov, N.Esmati, R.Ma'mataliyevlar turlicha yondashuvlar asosida o'zbek va boshqa turkiy tillarga oid gidronimlarning struktur tarkibini aniqlagan va xulosalar chiqarganlar. Shuningdek, O.Rajabov gidronimik indikatorlarni belgi-xususiyatiga ko'ra 5 ta turga ajratib, 11 ta indikatorning tarkibiy va mazmuniy jihatlarini izohlagan [7.94.].

N.Uluqovning "toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifida uning tarkibidagi morfemalarga, ya'ni lug'aviy asos, yasovchi affiks, topoformant va toponimik aniqlagichlarni asosga olish lozim [10.178.]", degan fikridan kelib chiqib, biz ham Xorazm gidronimlarini ana shu faktorga tayangan holda, shuningdek, hududning muayyan nomlanish tamoyillari asosida struktural farqlanuvchi jihatlarini ham inobatga olib tahlil qilishga harakat qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tilshunoslikda obyektning tushunishning asosiy vositalaridan biri sifatida modellardan foydalaniladi. Toponimlar, jumladan, gidronimlar – til birligi. Shunday ekan ularning tuzilishiga ko'ra tasnifi ham so'zlarning tuzilishiga ko'ra tasnifidan farqlanmasligi lozim [10.78]. Struktural elementlar so'zning ma'no-xususiyatini aniqlashda, izohlashda asosiy rol o'ynaydi va ularni sintaktik qoliplar – modellar vositasida o'rganish yaxshi samara beradi. Davr o'tishi bilan ma'nosi xiralashgan, o'zgargan ba'zi so'zlarning haqiqiy semantikasi struktural elementlarning ma'nolarini aniqlash orqali oydinlashadi. So'z ma'nolarining aniqlanishida struktural elementlarning asos qilib olinishi ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan e'tirof etilgan [9.29.]. Gidronimlarning strukturasi ham til sistemasining sintaktik sathidagi real nutqiy birlikka asoslanuvchi obyektiv mavjudlikdir. Struktura elementlarining yaxlit doirasidagi aloqa usullari va qonuniyatlari sifatida qaralishi har bir elementning yaxlitlikdagi

o'rini ta'kidlash imkonini beradi [5.20.]. Shunga muvofiq mazkur maqolada Xorazm viloyatida joylashgan va shu hududdan oqib o'tuvchi suv inshootlarining tuzilish modellarini aniqlashga e'tibor qaratamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm gidronimlarini quyidagicha struktur tahlil qildik:

Xorazm gidronimiyasiga mansub sodda so'zli gidronimlar. Til birliklarining eng sodda obyektiv shakli so'zdir. Tildagi narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim strukturaviy birlik so'z hisoblanadi. *Sodda so'zli gidronimlarda so'z tejalgan va shaklan ixcham holatda ifodalanadi.* Ma'lumki, birgina asosdan tashkil topgan so'zlar sodda so'zlar bo'lib, ular tub va yasama bo'ladi. Xorazm viloyatidagi sodda tarkibli gidronimlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Ot so'z turkumiga oid sodda gidronimlar: Shixlar (kanal, Xiva tumani), Eshon (ko'l, Bog'ot tumani), Daryoliq (kanal, Yangibozor tumani), Damirchi (temirchi ma'nosida, ko'l, Xonqa tumani) kabi.

Sifat so'z turkumiga oid sodda gidronimlar: Sho'r (ko'l, Yangiariq tumani), Duni (tiniq ma'nosida, yop, Xiva tumani), G'ovuk (chuqur ma'nosida, ko'l, Xiva tumani) kabi. Ma'lumki, -li qo'shimchasi egalik ma'nosini bildirib, yasama sifatlarni hosil qiladi. F.Abdullayev ham o'z tadqiqotlarida -li affiksi otdan sifat yasashini qayd etadi [4.143.]. Mazkur qo'shimchali gidronimlar Xorazmda ko'p uchraydi. Cho'rtanli, Baliqli, Lakkali, O'rdakli, Chiyali, Tomirli kabi nomlar shular jumlasidandir.

Fe'l so'z turkumiga oid sodda gidronimlar: Yormish (kanal, Gurlan tumani), Dinak (zahkash, Xiva tumani). *Dinak* shevaga oid so'z bo'lib, *tinadigan* ma'nosida qo'llangan. Gidronimik nomlar tarkibidagi -gan qo'shimchasi fe'llarga qo'shilib, harakat nomini bildiradi.

Son so'z turkumiga oid sodda gidronim: To'rtinchi (ariq, Gurlan tumani).

Sodda so'zli gidronimlar, odatda, obyekt joylashgan hudud mahalliy aholisi tilida o'zlariga tushunarli tarzda qo'llanadi va ana shu omil ularning nomlanishiga asos bo'ladi.

Xorazm gidronimiyasiga mansub qo'shma tarkibli nomlar. Qo'shma so'z ikki va undan ortiq

mustaqil soʻzlarning birikuvidan hosil boʻladi. Bu kompozitsiya usulida gidronim yasash hisoblanib, ot, sifat, son, taqlid kabi soʻz turkumlari bir-biriga qoʻshilishi natijasida nomlar vujudga keladi. Qoʻshma tarkibli gidronimlarning yasashida koʻl, soy, ariq (solmo), daryo, buloq, quduq, arna, yop kabi gidronimik indikatorlar faol qoʻllanadi. Ular qoʻshma, shuningdek, murakkab gidronimlarning maʼno tomonini aniqlovchi qismlardir [10.180.]. Xorazm gidronimiyasi tarkibiga kiruvchi qoʻshma nomlarning quyidagicha modellari mavjud:

- 1) **Ot+ot:** Marboʻgat (Gurlan tumani), Eshonyop (Yangibozor tumani), Oʻrisyop (Qoʻshkoʻpir tumani), Qirgʻizyop (Urganch), Polvonyop (Qoʻshkoʻpir), Ajinakoʻl (Qoʻshkoʻpir tumani), Toshquyi (Yangibozor tumani), Uygʻuryop (Yangibozor tumani), Ulliziykash (Gurlan tumani) va hokazo.
- 2) **Sifat+ot:** Koʻnazey (Qoʻshkoʻpir tumani), Qorakoʻl (Xiva tumani), Shoʻrkoʻl (Yangiariq tumani), Oqkoʻl (Shovot tumani), Aydinkoʻl (toza maʼnosida, Xiva tumani) va hokazo. Betonyop, Qumyop kabi suv obyektlari nomlarini ham sifat asosli deyish mumkin. Aslida ular Betondan yasalgan yaʼni betonli yop, yop ichida qum koʻpligi sababli Qumli yop tarzida nomlanib, vaqt oʻtishi bilan qisqargan shaklda qoʻllana boshlagan.
- 3) **Son+ot:** Toʻqsonyop (Gurlan tumani).
- 4) **Taqlid+ot:** Jikirdikoʻl (Xonqa tumani), Shangʻiryop (Urganch tumani).

Xorazm gidronimiyasiga mansub birikma tarkibli nomlar. Soʻz oʻz maʼnaviy imkoniyatini toʻlaroq va ravshanroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil soʻzga ehtiyoj sezadiki, bu soʻz uning maʼnaviy ehtiyoji uchun ham maʼnaviy, ham grammatik jihatdan unga muvofiq boʻlishii lozim. Leksemashakldan yirik tuzilma boʻlgan til birligiga birikmashakl deyiladi. Birikmashakl – supersegment birlik. Miyaning til xotirasi markazida birikmashakl modellarining ramzi mavjud [8.20.].

Birikma-gidronimlarni soʻz birikmalari qismlari orasidagi bogʻlanishlarning moslashuvli, bitishuvli birikma turlari boʻyicha tahlil qilish mumkin boʻladi. Boshqaruvli birikma shaklidagi gidronimlar mavjud emasligi aniqlandi.

Har ikkala aʼzo bir-birini taqozo qiluvchi morfologik vositaga ega ekanligi **moslashuvli soʻz birikmalarida** koʻrinadi. Moslashuvli bogʻlanishda bir tomondan, qaratuvchi qaralmishning oʻziga xos egalik shakllaridan birida kelishini, ikkinchi tomondan, qaratuvchi belgili yoki belgisiz qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Mangʻit kanali (Gurlan tumani), Turkman kanali (Qoʻshkoʻpir tumani), Kurdlar quduqʻi (Qoʻshkoʻpir tumani), Ostona kanali (Yangiariq tumani), Gurlan kollektori (Gurlan tumani), Karim koʻli (Urganch tumani) kabilar moslashuv birikmali gidronimlar sanaladi.

Bitishuvli birikmada tobe soʻz bilan hokim soʻzni bogʻlovchi hech qanday grammatik vosita boʻlmaganligi uchun uni Ø shakl bilan ifodalash oʻrinli. Bitishuv aloqasida morfologik koʻrsatkich boʻlmasa ham, soʻz tartibi va ohang muhim vosita hisoblanadi. Xorazm hududidagi quyidagi suv obyektlari nomlari bitishuv munosabatli gidronimlarga misol boʻla oladi: Tuyamoʻyin suv ombori, Doʻstlik koʻli (Bogʻot tumani), Sirchali kanali (Xiva tumani), Davdon kanali (Urganch tumani), Qiziloy ziykash (Yangiariq tumani), Qorakoʻz yop (Gurlan tumani).

Xorazm gidronimiyasiga mansub gap shaklidagi nomlar: Otyuvar (koʻl, Gurlan tumani), Eshakoʻlgan (ariq, Yangibozor tumani), Qamishoʻsdi (Gurlan tumani), Xonkeldi (Xiva tumani) kabi. Xorazm gidronimlari tarkibida uchraydigan bunday nomlar biror voqeani ifodalab kelishi bilan xarakterlanadi. Aytish joizki, atoqli otlarning boshqa turlarida gap shaklidagi birliklar juda kam uchragani holda, gidronimiyada ham bunday modeldagi kam sonli nomlarga duch keldik.

XULOSA

Gidronimik nomlar, avvalo, biror voqeaning atamasi shaklida mavjud boʻlib, keyinchalik vaqt oʻtishi bilan sayqallanib, yaxlit gidronim shakliga keladi. Gidronimlarni struktur jihatdan tahlil qilish juda koʻp lingvistik masalalarni yoritishga, jumladan, tilimizdagi mavjud va baʼzi isteʼmoldan chiqqan affikslarni, shuningdek, ayrim fonetik hodisalarni aniqlashga imkon beradi. Struktural elementlar tahlili gidronimik nomlarning qanday tarixiy sharoitga taalluqli ekanini, qaysi sheva yoki tilga mansubligini belgilashga, soʻzning haqiqiy etimologiyasini yoritishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nejebullah E. Taxor viloyati gidronimlarini tasniflash masalasiga doir. Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2022: 5.947.
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – 318 b.
3. Sayfullayeva M. Shofirkon tumani joy nomlarining geografik tavsifi. Bitruv malakaviy ish. – Buxoro, 2017.
4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент, 1964. – Б.143.
5. Буший Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007.
6. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.104.
7. Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал – семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзод. ... дисс. – Тошкент, 2009.
8. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002.
9. Топоров В., Трубочев О. Лингвистический анализ гидронимов. – Москва, 1962.
10. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимиясининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2008. – 192 б.

